

## ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAT O'RNI

**Murodova Mahfuzaxon**  
Qo'qon universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buyuk so'z namoyondasi, g'azal mulkinging sultoni bo'lgan Mir Alisher Navoiy ijodiyoti, nafaqat, Sharq xalqlari madaniyati, san'ati va adabiyotining taraqqiyotiga zamin yaratgan, balki jahon sivilizatsiyasi tamaddunida chuqur o'rin egallaganligi o'z isbotini topdi, Xalqlarning eng og'ir kunlarida ham Navoiy ijodiyoti yorug' kunlarga bo'lgan ishonch masha'alasi bo'lib xizmat qilganligi yoritildi. Alisher Navoiy Sharq va G'arb adabiyotining yirik namoyondasi bo'lib, G'arb adabiyotiga turk ruhiyatini olib kirganligiga urg'u berildi. Alisher Navoiy o'zaro yaqin adabiyotlar tarixini yaratishda, muayyan davr adabiy muhitini o'rganishda, alohida adabiy siymolar va ularning asarlarini tadqiq etishda adabiyotning eng yorqin vakillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Navoiy ijod qilishni odamlar o'rtasida nom qozonish yoki arzimas, arzon kechinmalarni to'kib solish vositasiga aylantirib olgan, adabiyotning asl maqsadi nimada ekanligini unutilib qo'ygan qalamkashlarga adabiyotning maqsadi nima ekanligini namoyish qilgan siymolardan biri sifatida tasvirlandi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, g'azal mulkinging sultoni, tamaddun, mutafakkir, poeziya, nasr, Sharq, G'arb, uyg'onish davri, siymo, namoyonda, olim, san'at, adabiyot, ma'naviyat.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье доказывается, что искусство Мир Алишера Навои, великого экспрессиониста, султана газелей, не только заложило основу для развития культуры, искусства и литературы народов Востока, но и заняло глубокое место в цивилизации мировой цивилизации. Подчёркивалось, что даже в самые тяжёлые дни народов искусство Навои служило символом веры в светлые дни. Алишер Навои является выдающимся представителем восточной и западной литературы, и было подчеркнуто, что он привнес турецкий дух в западную литературу. Алишер Навои выступает как один из самых ярких представителей литературы в создании истории смежных литератур, изучении литературной среды определенного периода, исследовании отдельных литературных деятелей и их творчества. Навои описывался как одна из фигур, показавших предназначение литературы тем писателям, которые превратили творчество в средство завоевания славы среди людей или изливания тривиального, дешевого опыта и забыли, в чем состоит изначальная цель литературы.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, султан сословия газелей, цивилизация, мыслитель, поэзия, проза, Восток, Запад, ренессанс, образ, проявление, учёный, искусство, литература, духовность.

### ABSTRACT

In this article, it is proved that the art of Mir Alisher Navoi, the great expressionist, the sultan of ghazals, not only laid the foundation for the development of the culture, art and literature of the peoples of the East, but also occupied a deep place in the civilization of the world civilization. , It was highlighted that even in the most difficult days of the nations, Navoi's art served as a symbol of faith in brighter days. Alisher Navoi is a great exponent of Eastern and Western literature, and it was emphasized that he introduced the Turkish spirit to Western literature. Alisher Navoi appears as one of the brightest representatives of literature in creating the history of related literatures, studying the literary environment of a certain period, researching individual literary figures and their works. Navoi was described as one of the figures who showed the purpose of literature to those writers who have turned creativity into a means to gain fame among people or to pour out trivial, cheap experiences, and who have forgotten what the original purpose of literature is.

**Keywords:** Alisher Navoi, the sultan of the ghazal estate, civilization, thinker, poetry, prose, East, West, renaissance, image, manifestation, scientist, art, literature, spirituality.

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy jahon tamaddunidagi eng serqirra ijodkorlardan biri bo'lib, adabiyotimizdagi deyarli barcha yo'nalishlarda ijod qilgan buyuk qalam sohibidir. Navoiy - ulug' o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo'lgan. G'arbda chig'atoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda " nizomi millati va din " ( din va millatning nizomi ) unvoni bilan ulug'lanadi. Yuz mingdan ortiq lirik va epik asarlari jahon madaniyati hamda turkiy xalqlarning ma'naviy qarashlariga bebaho hissa qo'shdi. Navoiy qoldirgan ilmiy-adabiy meros hayratlanarli darajada ulkandir. Shu o'rinda uning asarlaridagi masalalar haligacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Na Sharq, na G'arb xalqlari ijtimoiy hayotida deysizmi, madaniyatida deysizmi, san'atidami hali hamon Navoiy qalamga olgan mavzular dolzarbdir. Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tarannum etdi. Ham adabiy, ham ilmiy asrlari, ham go'zal insoniy fazilatlar bilan barchaga o'rnak bo'lib kelayotgan Alisher Navoiyning rang-barang ijodi barcha siyosat-u rayosatlardan ustun kelib, o'zining go'zal o'zbekona ifodasi sifatida umumbashariyat mulkiga aylanganligi rad etib bo'lmas haqiqatdir.

Shoirning epik asari “Xamsa”, to‘rt lirik devonni o‘z ichiga oluvchi “Xazoyin ul-maoniy” asari, falsafiy dostoni – “Lison ut-tayr”, tarixga oid “Tarixi anbiyo va hukamo”, “ Tarxi mulki Ajam “, adabiyotshunoslikka oid “Mezon –ul avzon”. “Majolis-un nafaos”, tilshunoslikka oid “Muhokamat – ul lug‘atayn”, axloqiy-falsafiy asari “Mahbub-ul qulub”, tasavvuf tarixiga oid “Nasoyim ul-muhabbat”, ruboiylar majmuyi “Nazm-ul javohir”, diniy mavzudagi “Arbain”, “Siroj ul-muslimin”, xotiralari “Said Hasan Ardasher”, “Holati Pahlavon Muhammad”, maktublar to‘plami “Munshoat”, vaqf ishlari haqida “Vaqfiya” va boshqa bir qator asarlari turkiy xalqlarning ma’naviy-madaniy mulki bo‘lib qolmoqda.

Alisher Navoiy zamon va makon bilmas adabiy zakodir. Asarlari hayot qomusi kabi hamisha to‘g‘ri yo‘lning yorug‘ manzilini korsatadi, egri yo‘lning ayanchli oqibatlaridan saboq beradi. Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy an‘analari zaminida maydonga keldi va o‘z navbatida keying davr adabiyoti rivojiga samarali ta’sir ko‘rsata oldi. Ma’lumki, Navoiy nafaqat o‘zbek tilida, balki forsiy tilda ham salmoqli meros qoldirgan.

Jahon adabiyoti titanlarini eng qisqa ro‘yxatda ko‘z o‘ngimizda tizadigan bo‘lsak, bular – Li Bo, Homer, Evriped, Rudakiy, Firdavsiy, Dante Aligyeri, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Gnjaviy, Alisher Navoiy, Vilyam Shekspir, Iohani Volfgang Gyote, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Onre de Balzak, Jek Londonning hamisha porloq siymolari o‘z ijod olamlari bilan gavdalandilar. Chunki ularning har biri o‘z xalqlari va bashariyat uchun adabiy dahodirlar.

Eng nozik yana bir masala iste’dod darajasi bo‘lib, Navoiygacha va hozirgacha ham Alisher Navoiy siymosiga nasib etgan bu fazilat pog‘onasiga hech kim yuksala olmadi. Uning adabiy mahorati sirlari hali hozirgacha endi ochila boshlagan qo‘riq bo‘lib turibdi. Navoiy ijodi abadiyatning bosh siri - uning asarlarida kuylangan umumbashariy o‘lmas va qarimas g‘oyalar: insonparvarlik, ahloqlilik, aqliy va hissiy komillikdir. O‘zbek millatining baxti borki, uning Alisher Navoiysi bor. Akademik Konrad ana shu ma’noda, ya’ni Navoiy kelib chiqqan millatning baxtiyorligini alohida qayd etgan edi.

Navoiy dahosining eng muhim nuqtasini uning o‘zi qayd etgan, ya’ni shoir asarlarida “ dard va so‘z ( quyish ) “ tantanasiga keng o‘rin bergan va bu bilan ularning voqelikka juda yaqinligini ta’minlagan. Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Hazrat Navoiy hayotining so‘nggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug‘at tuzishganligi uning hayotligidayoq ijodiga qiziqishganidan dalolatdir. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl Navoiy asarlaridan foydalanib, lug‘at tuzadi. Buni qarangki, hatto fransuz

olimlari ham Navoiy asarlari lugʻatini tuzishganing oʻzi uning buyuk daho ekanligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy ijodi adabiyotshunoslikdan tashqari tarix, tilshunoslik, lugʻatshunoslik, sheʼr sanʼati, islomshunoslik va tasavvufshunoslik kabi fan sohalari uchun ham boy manba boʻlib xizmat qilib kelmoqda. Alisher Navoiy tarjimai holi oʻz davrida Xondamir, Vosifiy, Bobur, Husayn Boyqaro kabi tarixchi va davlat arboblarning asarlarida aks etgan. Navoiy Amir Temurning oʻgʻli Shohrux Mirzo shohligi davrida tugʻilgan. Zamondoshlari uning haqida koʻpincha “Nizomiddin Mir Alisher” deb yozadilar. “Nizomiddin” - din-dinoyat nizomi degani boʻlib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, “mir”- amir demakdir. Uning otasi Temuriylarning ishonchli kishilaridan boʻlgan. Navoiy maʼnaviyatli, maʼrifatli oilada ulgʻaygan. U saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda oʻsadi. Bu uning keyingi ijod va ishlariga turkti boʻldi, chunki u oilmu fozillar davrasida oʻsadi.

Zabardast olim, filologiya fanlar doktori, professor Almaz Ulviy (Binnatova)ning “Alisher Navoiyning asri va nasri ( ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarlari )” nomli monografiyasi - Navoiy yashagan ijtimoiy-madaniy muhit, ulugʻ shoirning maʼnaviy-axloqiy qiyofasi va nasriy asarlarining oʻziga xos jihatlari bir butun tarzda oʻrganilgani bilan alohida mavqeyga ega. Ulviyning mazkur tadqiqoti Alisher Navoiy yashagan davr, zamon, ijtimoiy, siyosiy, adabiy muhit, zamondoshlarining axloqiy qiyofasi va ulugʻ mutafakkir asarlari haqida maʼlumot beribgina qolmay, mazkur asarlarning gʻoyaviy olami, badiiyati xususida ham keng mushohada yuritishga undaydigan yana bir tadqiqotdir.

XX asrning birinchi choragida aksariyat Yevropa va rus sharqshunoslari Navoiy ijodi bilan mashgʻul boʻlgan, uning ijodi haqida hech boʻlmaganda bir maqola yozgan. Ularning koʻpchiligi Navoiy ijodiga bir yoqlama qarab, fors adabiyotining taqlidchisi, vakili, oʻzbek adabiyotiga biron yangilik qoʻshmagan, deb ayuhannos solanlarida, Y.E.Bertels “Navoiy va Attor” kitobida “Lison ut-tayr” ni, “Mantiq ut-tayr”ga qiyoslab, Navoiyning buyuk shoir, daho ijodkor ekanini koʻrsatib berdi. “Navoiy va Jomiy” kitobiga soʻzboshi yozgan Ergash Rustamov Bertelsning ilmiy faoliyati bilan juda yaxshi tanish sadoqatli shogird sifatida bunday deydi: “Lison ut-tayr” ni koʻzdan kechirish bizning koʻz oldimizda ulkan sanʼatkorni, orginal asar yaratishga qodir soʻz ustasini, sanʼatkorlik inʼomi bilan birga, bilimi va qiziqish doirasi nihoyatda ulkan tafakkur egasini, buyuk donishmandni, biz uchun yanada qimmatlirogʻi – atrofdagi odamlarga nisbatan qalbi sevgiga limmo-lim toʻla, shu sevgi tufayli insonlarning kamchiliklarini kechirib yuboradigan katta qalb egasini namoyon qiladi”. Bertelsning Navoiyga boʻlgan muhabbati faqat “Lison ut-tayr” bilan cheklangan emas. Navoiyni Attor

bilan qiyoslagani sababi har ikkala shoir dunyoqarashining o'xshashligi bilan belgilanadi. Bertelsga falon asari shuhrat keltirdi deb aytishdan ko'ra, u hamma kitoblarida asosiy urg'uni Navoiyga qaratdi deb aytsak, haqiqatga yaqin bo'ladi. Bertelsning Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan muhabbati uning shoir ijodi tub mohiyatiga kirishiga zamin bo'ldi. Bertelsning asosiy e'tibori Navoiyga qaratilgani bois buyuk shoir ijodining hamma qirralarini ochishga harakat qildi. Jumladan, uning asarlarini o'z davrida forsiyzabon ziyoli qavmi tushuna olishi uchun ilk lug'atlar - Tole Imon Heraveyning "Badoi al-lug'at"i tuzilgani haqida xabar berar ekan, bu lug'at Navoiy hayotlik davrida yaratilgani, hatto eski o'zbek tilida so'zlasha olgan Abdurahmon Jomey ham lug'atdan foydalangani ehtimoldan holi emas. (1)

Alisher Navoiyning go'zallikni tarannum etgan asarlari, umumbashariy g'oyalari jahon adabiyoti tarixidagi ulug' siymolarning ijod namunalari bilan hamohangdir. Navoiy uyg'onish davrining yirik namoyondasidir. Uyg'onish davri VIII-IX asrlarda Xitoyda boshlanib, IX-XV asrlarda O'rta Osiyo, Eron, Hindistonning bir qismida davom etgani va XVI-XIX asrlarda Yevropada nihoyasiga yetkanligi hech birimizga sir emas. Uyg'onish davrining buyuk vakillari ijodida qandaydir umumiylikni ko'rish mumkin. V.M. Jirmunskiy "Alisher Navoiyning ulkan figurasi jahon adabiyotidan alohida ajralib qolgan emas. O'zbek adabiyotining buyuk asoschisining ijodi bevosita g'arbdagi hamfikrlarining uyg'onish davri shoir va mutafakkirlarining ilg'or g'oyalari bilan qo'shib ketadi" - deb yozadi.

Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy - Sharq Renessansining yirik namoyondasi sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida, ayniqsa, turkiyzabon xalqlar madaniy va ma'naviy hayotining rivojida alohida o'rin tutadigan yorqin shaxsdir. O'z asarlarida ma'naviy poklik, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlikni kuylab, o'z avlodlariga buyuk adabiy-falsafiy va ilmiy meros qoldirdi. Uyg'onish davri turli joylarda va vaqtlarda o'ziga xos tarzda kechgani bilan barcha xalqlar madaniyati va adabiyotida o'xshash tomonlarni ham vujudga keltirgan. Bu davr kishilarining umuminsoniy g'oyalarni ko'tarib chiqqanligi, bashariyat taqdiri uchun qayg'urganligidandir. Uyg'onish davri allomalarining ijodi bir xalq doirasidan chiqib, boshqa xalq ijodkorlariga ta'sir qilishi shubhasizdir.

Navoiyni xorijda Y.E. Bertles (Rossiya), Artoleme d'Erbelo, Silvestre de Sasi (Fransiya), I.N. Beryozin, V.V. Velyaminov, M. Nikitsiy (Rossiya), M.Belen, E.Bloshe, L. Buva (Fransiya), E. Braun (Angliya), V.Bartold (Rossiya), A.Kurella (Germaniya), M.Sabtelni, V.Feldman, D.Genchturk, D.Devin, K.Adalx, G.Dix (Angliya) kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotlarning barchasi dunyo hamjamiyatida globallashuv jarayonlari kuzatilayotgan hozirgi davrda

Alisher Navoiy ijodini har tomonlama tadqiq qilishga qiziqish va ehtiyoj ortib borayotganligini ko'rsatadi. Hazrat Navoiyning asarlari hayotligidayoq Vatani sarhadlaridan uzoqlarda mashhur edi. Uning g'azallarini ilk bora o'qigan, tinglagan inson, beixtiyor shoirning muxlisiga aylanadi. Dunyodagi hech bir xalq Navoiy ijodi bilan tanishgach, unga befarq bo'lgan emas. Bunga misol qilib, XV asrda Turkiyadagi eng yaxshi shoirlardan hisoblangan, turk adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rni bo'lgan shoir Ahmad Posho turk shoirlari ichida birinchilardan bo'lib Navoiy ijodiga murojaat qilgan. Zamondoshlari ko'proq fors, arab adabiyotining ulug' namoyondalariga taqlid qilgan paytda Ahmad Poshoning Navoiy ijodiga nazar tashlab, qiziqishi ijobiy holdir. 1481 – yilda Ahmad Posho Bursa shahrining hukmdori qilib tayinlanadi. Shu yillarda Navoiyning 33ta g'azali Turkiyaga yetib boradi. Ahmad Posho g'azallar bilan tanishib, qo'lga yetib kelgan Navoiy g'azallarining barchasiga nazira bog'laydi. Navoiy g'azallari yuksak badiiy mahorat, insonparvarlik g'oyalari Ahmad Poshoni shoir sifatida rom qilgan. Ko'rinib turibdiki, Ahmad Posho lirikasining barkamollashuvida Navoiy ijodining o'rni beqiyosdir.

Turk tarixiga nazar solsak, buyuk Navoiy ijodi faqat lirik poeziyaga ta'sir qilibgina qolmay, balki yirik epik asarlarning yaratilishida ham sezilarli ta'siri bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Buning yorqin isboti sifatida, Tojali Yahyo turk adabiyoti tarixida "Xamsa" yaratganlardan biri bo'lib, asarini yaratishda Navoiy "Xamsa" sidan ilhomlanganligi shubhasizdir. Bundan tashqari, Usmonli shoirlar orasida "Xamsa" yartgan Hamidulla Hamdi Chalabiydir. Chalabiy "Xamsa" sining ikkinchi dostoni, arab adabiyotida keng tarqalgan, sevimli syujet bo'lgan, "Layli va Majnun" dostonidir. Hamdulla Hamdi va Alisher Navoiy dostonlarini qiyoslab o'rgangan adabiyotshunos V.Garbusova Hamdining doston yozishiga Navoiyning ijodiy ta'siri bo'lganini aytadi. "Garchi Hamdi o'z dostonida A.Navoiyning shu dostoni biln tanishganligi to'g'risida oshkor biror narsa aytmasa ham Hamdini Navoiyning genial asari bilan tanish bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Hamdi dostonidagi voqealar rivojlanadigan muhit tasviri Navoiy tasvirini juda-juda eslatadi. Bundan tashqari, Navoiy singari Hamdi ham o'z dostonida Qays (Majnun) ning telba muhabbatining ayanch tarixiga asosiy kuchni bermaydi, balki Laylining og'ir ahvolini tasvirlash orqali O'rta asrda ayollarga buyum sifatida qaralishiga qarshi norozilik bildiradi. Hamdining dostoni bu jihatdan ham e'tiborga sazovorki, u Navoiyning chinakam ta'sirini sezish mumkin bo'lgan birinchi turk masnaviysidir". (2)

Ozarbayjon farzandi bo'lishiga qaramay, o'zbeklar orasiga singishib ketgan Maqsud Shayxzodani Navoiy merosi o'ziga jalb qiladi. Navoiyga bo'lgan muhabbati uni "Navoiyning lirik qahramoni haqida" (nomzodlik dissertatsiyasi,

1948-yil ), “Navoiy lirikasining ba’zi bir poetic usullari haqida”, “Ustozning san’atxonasi” ( Uchta maqola e’lon qilgan ), “G’azal mulkinging sultoni” kabi ishlar qilishga undagan. “Shayxzoda Sharq poetikasi muammolarini tadqiq etib, ularni Navoiy lirikasida aks etish qonuniyatlarini yoritishga harakat qiladi. U buning uchun Navoiygacha bo’lgan poetik an’analar haqida batafsil so’z yuritadi. Navoiyning bu an’analarning davom ettirish va rivojlantirishdagi xizmat hamda novatorligini adabiy estetik ko’lamda tahlil qiladi. U ayni zamonda, mumtoz she’riyatimizdan, xususan Navoiy ijodidan qanday fazilatlarni qabul qilishi lozimligi haqidagi qarashlarini ilgari suradi. Bu masalalarni yoritishda u asosan: a) Navoiyning lirik qahramoni; b) Navoiyning estetik prinsiplari; v) Navoiyning badiiy san’atlari kabi muammolarni diqqat markaziga qo’yadi.

Shayxzoda Navoiy g’azallaridagi birinchi va eng yetakchi fazilat voqeabandlik deb hisoblaydi. Ma’lumki, ayrim mumtoz shoirlarning g’azallari chiroyli baytlardan iborat bo’lib, ularda syujet belgilari ko’rinmaydi. Ulardagi xohlagan baytning o’rnini almashtirib o’qilsa ham, tushirib qoldirilsa ham g’azalda hech narsa o’zgarmaydi, chunki bu baytlar mexanik ravishda tuzilib bo’lib, biri ikkinchisi bilan mantiqan bog’lanmagan. Bu masalani tadqiq etar ekan, olim g’azalning, lirik she’rlarning o’ziga xosligidan kelib chiqib ish tutadi va syujetini ma’lum voqealar tizmasi emas, balki fikr va tuyg’ularning mantiqiy bog’lanishi va rivojlanib borishi tarzida keng ma’noda talqin qiladi. “Bundoq she’rlarda, g’azalda yagona bir mavzu va obraz bo’lmay, mavzu jihatidan bir-biriga yaqin istioralar va tashbehtar yonma-yon tizilib, umumam chiroyli va lekin voqeaband bo’lmagan asar paydo bo’lib qoladi”, - deb yozadi Shayxzoda.

Navoiy ijodiga turk shoirlarining muhabbati, uning g’azallariga bag’ishlangan naziralar shoirni usmonlilar Turkiyasida juda mashhur qilib yubordi. Navoiy asarlaridagi insonga bo’lgan mehr, go’zallikni ulug’lash, vatanni kuylash, do’stlik g’oyalari turk shoirlarini maftun qiladi. “Navoiyning ajoyib lirikasi turk shoirlariga, ularning ijodiga juda katta ta’sir ko’rsatdi. Buyuk mutafakkir lirikasidagi chuqur falsafiy fikrlar inson tafakkuriga zo’r ta’sir qila oladigan yorqin poetik obrazlar va tasviriy vositalar hammaning e’tiborini o’ziga tortdi. Ular Navoiyning shoirlilik qudratiga, uning juda katta san’atkorlik kuchiga qoyil qoldilar. Alisher Navoiy asarlarining turklarga g’oyat manzur bo’lganligini shundan ham ko’rish mumkin”, - deb yozadi adabiyotshunos V.Garbusova.

Chet ellik taqdiqotchilardan biri A. Kurella Navoiyning “Farhod va Shirin dostonining o’ziga tortgan jihatlarini sanab o’tadi:” Asarning tarjimonlarni o’ziga tortgan jihatidan biri tabiat manzaralari , ikkinchidan Navoiyning usta peyzaj yaratish mahorati, uchinchidan tabiat fasllaridagi tasviridagi ranglarning xilma

xilligi va ularning har birini faslga mos jilolanishi, to‘rtinchidan, shoirning radif, hojib kabi bir talay badiiy san’atlardan foydalanganligidir”, deydi.

N.S. Banarli Navoiy ijodining yuqori baholab, shunday so‘zlarni aytib o‘tadi “Navoiy o‘z davri va undan so‘ng ham ijodkorlar uchun ideal bo‘lib qoladi. Navoiydek yozish har bir shoirning orzusi edi”.

Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy an‘analari zamirida maydonga keldi va o‘z navbatida keyibgi davr adabiyoti rivojiga samarali ta‘sir ko‘rsata oldi. Navoiy nafaqat o‘zbek tilida, balki forsiy tilda ham salmoqli meros qoldirgan. “Alisher Navoiyning forsiy g‘azallari yangi ma‘no va nozik badiiy tasvir ma‘lum darajada ko‘p va mahorat bilan ishlatilgan bo‘lib, bularni XV asrning ikkinchi yarmidagi butunlay mustaqil va birinchi darajali fors-tojik she‘rlariga aylantirgan. Bu holat “Foniy” devonida tasodifiy bir hodisa emas. Alisher Navoiyning fors-tojik she‘riyatida ham ustozligi va yuksak mahorat ko‘rsatganligi uning javobiya yoki mustaqil g‘azallarining har birida, ma‘lum darajada aniq ko‘rish mumkin”. ( 5 )

G‘arbda Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganish XIX asrdan boshlangan deb aytish mumkin. 1818-yilda nemis olimi X.Purgshtall “Navoiyga oid bitiklar” asarini yaratib, unda Alisher Navoiyning nasl-nasabi, shoirligi, davlat arbobi sifatidagi faoliyati va bunyodkorlik ishlariga to‘xtalib o‘tadi. 1856-yilda M. Nikitskiyning shoir ijodiga bag‘ishlangan “Amir Nizomiddin Alisher: davlat arbobi va shoir sifatida” nomli ilk magistrlik dissertatsiyasi vujudga keldi. M.Nikitskiy Navoiyning hayoti va faoliyatini ancha to‘liq o‘rgangani, uning shoir, olim va davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga yuqori baho bergan holda Sharq mumtoz adabiyotidagi ijodiy an‘analarni anglab yetgani uchun Alisher Navoiyni “fors-tojik adabiyotining tarjimoni” deb e‘lon qiladi. Butun dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar, ma‘naviy tafakkurdagi yangilanishlar buyuk Sharq mutafakkiri, xususan, Alisher Navoiy ijodiga yangicha yondashuvning shakllanishiga zamin hozirladi. Nemis olimi A.Kurellaning “Buyuk shoirning qayta kashf qilinishi” nomli tadqiqoti G‘arb navoiyshunosligida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tadqiqotdan so‘ng G‘arbda Navoiy shaxsiyati endi ikki yo‘nalishda: ham buyuk ijodkor, ham davlat arbobi sifatida tadqiq qilina boshlandi. ( 6 ) Alisher Navoiy ijodi va shaxsiga qiziqish, tadqiq va targ‘ib asrlar davomida uzluksiz olib borilgan. Chunki buyuk mutafakkir ijodi butun insoniyatni ezgulikka, tinchlik va do‘stlikka da‘vat etib kelgan. Shu bois, hatto eng og‘ir damlarda Alisher Navoiy merosi insonlar qalbida yorug‘ kunlarga umid uyg‘otgan. 1941-yilning 10-dekabr kuni Ikkinchi jahon urishining eng mudhish damlarida Leningrad (hozirgi Sank Peterburg) dahshatli qamal iskanchasida qolgan paytlarda Davlat Ermitajida Alisher Navoiy



tavalludining 500 yilligi munosabati bilan ilmiy-anjuman o'tkazilgan. Ma'lumki Adolf Gitler boshchiligidagi fashistlar Germaniyasi 1941-yilning 22-iyunida Sovet ittifoqiga hujum boshladi. Gitlarning rejasiga ko'ra, birinchi navbatda Yer yuzidan yo'q qilinishi kerak bo'lgan Sovet shaharlaridan biri, shubhasiz Leningrad edi. Leningrad ittifoqning harbiy va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatiga ega bo'lgan markazlaridan hisoblanardi. Qamal sharoitida shaharda ahvol kun sayin og'irlashib borar, har kuni dushman kuchlarining havo hujumlari oqibatida o'nlab insonlar hayot bilan vidolashardi. Ayni 1941-yilning qish kunlari boshlanishi bilan ahvol yanada og'irlashadi. G'arbiy Yevropada Ikkinchi jahon urushi tobora alanga olayotgan bir paytda 1941-yilning 12-mart kuni Nizomiddin Ganjaviyning sakkiz yuz hamda Alisher Navoiyning besh yuz yilligini nishonlash haqidagi hukumat qarori imzolangan edi. Leningrad dahshatli qamal iskanjasida qolganiga qaramadan, buyuk mutafakkir tavalludi nihonlanaveradi. Jumladan, Navoiy ijodiga bag'ishlangan ijodiy kechalar Leningrad ziyolilarining o'ziga xos jasorat namunasi bo'ldi. 10-dekabr kuni Ermitaj binosiga taklif qilingan shoir va olimlar, rassom va ziyolilar ochlikdan arang qadam tashlab Navoiyning 500 yillik yubileyiga yetib kelishadi. Leningrad Fosfor zavodi rassomi Mixail Mox Ermitajning sovuq xonalaridan birida, miltillab yonayotgan pech qarshisida o'tirib Navoiyning 500 yilligiga bag'ishlangan chinni idishlarga rasm solardi. Bu idishlar hozirgacha Ermitajda saqlanadi. Buyuk mutafakkir Navoiy tavalludining 500 yilligi tadbirlarida I.Orbeli, N.Lebedov, E.Bertles, B.Piotrovskiy, I.Krachkovskiy, V.Rajdesvenskiy singari buyuk olimlar va adiblar ishtirok etishgan. Navoiyxonlik orada tanaffus bilan 10-12-dekabr kunlari o'tkazilgan. Tadbirning uchinchi kuni shoir va tarjimon Navoiyning "O'n sakkiz ming olam oshubi..." deb boshlanadigan g'azalining ruscha tarjimasini o'qiy turib, gilam ustiga yiqilib tushgan va qaytib o'rnida turmagan. Bu g'azalda Navoiy idealidagi insonning, mumtoz mahbubaning yetukligi shu darajadagi, uning boshida nafaqat mazkur "o'n sakkiz ming olam oshubi" haqidagi tasavvur, balki ana shu oshub (g'avg'o, to'polon), ana shu g'alayon bor. Shu o'rinda Alisher Navoiy har bir inson shaxsiga naqadar buyuk ahamiyat berganligi, qanchalik zalvorli yuk ortganligini ta'kidlab qo'yish lozim. G'azaldan ayonki, har bir kun shunchaki lahza emas, balki qanchalab mumtoz go'zallarning va ular orasidagi bitta eng yetuk sohibjamolning o'n sakkiz yoshga to'lib turadigan oniy bir mo'jizasi o'lchamidir. Balki g'azalning shu ta'sir kuchi mutola qilyotgan kishiga, xuddi shu kunlar bo'lishini bilib aytilgandek ta'sir qilgandir. Butun tuyg'ularini oyoqqa turg'azgandir, bunisi bizga qorong'u. Bir narsani ochiq aytishimiz mumkinki, she'ning ta'sir doirasi bir insonni qulatilish darajasida ekan, demak bu haqiqiy san'at namunasidir.

Ushbu tadbirda mashhur sharqshunos olim Iosif Orbeli shunday soʻzlarni keltirgan “Bugun juda murakkab paytda Navoiy tavalludini nishonlayapmiz. Dushmanlar shaharni majolsiz va jonsiz deb oʻylayotgan bir paytda bu tadbirning oʻtayotgani xalqning mardona ruhidan, uning bukilmas irodasidan darak beradi. Biz albatta gʻalaba qozonamiz va tinchlik sharoitida Navoiy tavalludini munosib tarzda nishonlaymiz. Ammo dushman zambaraklari ostida oʻtayotgan bu tadbir inson xotirasida abadiy qoladi. Hech narsaga qaramasdan sheʼriyat yashayveradi va uni hech qanday kuch magʻlub etolmaydi. Biz har doim uning maftunkor olamiga kirib boraveramiz”.

Buyuk Alisher Navoiy goʻzallikni kuylagan asarlari mana necha yuz yildirki, oʻz jilosini yoʻqotmagan. Navoiy asarlari haqidagi maʼlumot XVI asrdayoq Yevropada maʼlum edi. 1557-yilda italyan tilida nashr etilgan va Xristofor Tabriziyga nisbat beriluvchi “Sarandib shohining uch yosh oʻgʻloni ziyorati” asarning ikkinchi qismida Navoiyning “Sabʼai Sayyor” dostonidan olingan Bahrom va Dilorom sarguzashti bayon qilinadi. Shu birgina dalilning oʻzi Navoiyning jahon tamaddunidagi oʻrni beqiyosligini taʼkidlab turibdi. XVII asrda gruzin shoiri Sitsishvili Navoiyning “Sabʼai sayyor” dostonini ijodiy tarjima qilib, oʻzining “Yetti goʻzal” dostonini yaratadi. Bir ijod namunasi yaralishi uchun boshqa bir ijod namunasi kuch olish adabiyotning ajoyib qirrasidir. Navoiy ijodi boshqa ijodkorga, nafaqat ruhiy madad bergan uni ijod qilishga undaganligini koʻrib turibmiz. Bunday kuchga qodir boʻlish uchun yuksak salohiyat darkordir. Mana shunday salohiyat eng buyuk siymolardan biri Navoiyda ham mujassamlashgani barchamizni quvontiradi.

Alisher Navoiyning odaamiylik, ezgulik, poklik va halollikni, yurtparvarlik va tinchlikni tarannum etgan asarlari bugungi kunda jahon miqiyosida adabiyot muxlislarining mehri va ardogʻidadair. Inson qalbining quvonch-u qaygʻusini, ezgulik va hayot mazmunini u kishidek teran ifoda etgan shaxs jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Buyuk shoir oʻz asarlarida insoniy muhabbat, mehr-u vafo va nazokatni yonib, hassoslik bilan kuylagan.

Ezgulik va yovuzlikning azaliy kurashi keskinlashgan, umumbashariy qarashlar tizimida chuqur evrilishlar yuz berayotgan bugungi zamonda Navoiy targʻib qilgan gʻoyalar oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Navoiyni butun jahon oʻrganishining, sevishining va ulugʻlashining bosh mezoniga ham mana shular sababdir. Navoiyning goʻzal satrlarini oʻqiganda oliyanob qalb sadolarini sezib turamiz. Ana shu sadolar oʻzgacha ruh va koʻtarinkilik bagʻishlaydi kishiga. Alisher Navoiy asarlari nafaqat oʻzbek xalqining, balki butun insoniyatning maʼnaviy merosidir. Badiiy tafakkur qonuniyatlaridan boxabar inson borki, ularning inson tasavvuri va tafakkuridagi noyob estetik hodisa ekanini tan oladi. Alisher Navoiy

asarlarning turk, fors, rus, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjimalarini jamlasa, yuzlab jild kitoblar bo‘ladi. Navoiy asarlari tili bo‘icha bir necha o‘nlab lug‘atlar qilingani, asarlarning hamisha el-yurt nazarida ekanligining dalilidir. Navoiy asarlarning transkripsiya tizimi ishlab chiqilsa, bu merosdan butun jahon foydalanish imkoniyati yanada kengayadi. Mana shuning o‘ziyoq Navoiyning o‘lmas, asrlar osha yuksalaveradigan ijodkorligidan dalolatdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Abdullayev O. Maqsud Shayxzoda - Navoiyshunos. Maqola. O‘zbek adabiy tanqidi. Antologiya. – T., 2011. – B 280.
2. Davlatov Sh. Alisher Navoiy asarlari ingliz tilida. Bitiruv malakaviy ish. – T., 2012. – B 15.
3. Mirziyoyev A. Foni va Hofiz // Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. – T., 1968. –B 64.
4. Rahmonov N. Bertels – Navoiyshunos. Maqola. – T., 2020.
5. Shahnoza, I., & Ikromjonovna, J. S. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirishda ertaklarning o‘rni. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 806-808.
6. Ikromjonovna, J. S. (2023). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida joriy etilgan yangi darsliklarning afzallik jihatlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 661-663..
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG‘ICH SINFLARGA TA’LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
8. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
9. Jumanova, S. (2022). Landscape in Usmon Azim" Bakhshiyona". EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 2(4), 169-172.
10. SI Jumanova, G Mullaboyeva. BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA SHARQ VA G‘ARB ALLOMALARINING QARASHLARIDAN FOYDALANISH Educational Research in Universal Sciences 2 (14), 445-451
11. 1. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik. - T., 2019. – B 17.
12. Turk adabiyoti klassiklari. – T., 1960. – B 47.